



**LIZINGGA OLINAYOTGAN MULKLARNI (TRANSPORT VOSITALARIDAN TASHQARI) SUG‘URTA QILISH (JISMONIY SHAXSLAR UCHUN) SHARTNOMASI (OMMAVIY OFERTA)**  
\_\_\_\_\_ -SONLI

20\_\_yil “\_\_” \_\_\_\_\_ sh.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan berilgan Litsenziya asosida faoliyatni amalga oshiradigan, keyingi o‘rinlarda “Sug‘urtalovchi” deb ataladigan “O‘zagrosug‘urta” Aksiyadorlik Jamiyati nomidan 20\_\_yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-sonli Ishonchnoma asosida faoliyat ko‘rsatuvchi Boshqaruv raisi o‘rinbosari B.Axadov bir tarafdin va keyingi o‘rinlarda “Sug‘urta qildiruvchi” deb ataladigan F.I.Sh (arizadan tortiladi) ikkinchi tarafdin quyidagi shartlar asosida mazkur sug‘urta shartnomasini tuzdilar:

**I. SHARTNOMADA QO‘LLANILADIGAN ATAMALARNING TAVSIFI**

Atama	Ta‘rif
<b>Ariza</b>	Lizingga olinayotgan mulkni sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta shartnomasini tuzishga asos bo‘ladigan hujjat;
<b>Sug‘urta shartnomasi</b>	Taraflarning yuridik va moliyaviy munosabatlarini tartibga soluvchi ofertaga asosan elektron ravishda tuzilgan mazkur sug‘urta shartnomasi (Shartnoma);
<b>Naf oluvchi</b>	Mulkni lizingga beruvchi tashkilot (bank muassasasi, korxonasi, firma nomi);
<b>Lizingga beruvchi (Naf oluvchi)</b>	Mijoz arizasiga muvofiq lizingga beriladigan mulkning egasi– (Arizadan tortiladi);
<b>Lizing oluvchi</b>	Iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish maqsadida, ma‘lum bir yo‘nalish uchun lizing mulkini oluvchi jismoniy shaxslar;
<b>Baholash dalolatnomasi</b>	Lizingga olinayotgan mulkni baholanganligi haqidagi Naf oluvchi va Lizingga oluvchi o‘rtalarida tuzilgan baholash dalolatnomasi;
<b>Lizing shartnomasi</b>	20__yil “__” _____dagi _____ - sonli Sug‘urta qildiruvchi va Naf oluvchi o‘rtasidagi lizing shartnomasi;
<b>Mulk</b>	Lizing shartnomasida yoki baholash dalolatnomasida va Sug‘urta qildiruvchining arizasida ko‘rsatilgan lizingga olinayotgan mulk;
<b>Sug‘urta polisi</b>	Sug‘urta mukofoti to‘langandan so‘ng, sug‘urta qildiruvchiga beriladigan, Sug‘urtalovchining majburiyatlarini kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat.
<b>Sug‘urta puli</b>	Sug‘urta hodisasi natijasida ko‘rilgan zarar qiymatini Sug‘urtalovchi tomonidan qoplashning eng yuqori miqdori.
<b>Sug‘urta mukofoti</b>	Sug‘urta qildiruvchi yoki uchinchi shaxs (qonun yoki shartnoma asosida Sug‘urta qildiruvchi bilan bog‘liq shaxs) tomonidan Sug‘urtalovchiga, lizingga olinayotgan mulkni sug‘urtalash uchun sug‘urta shartnomasiga asosan to‘lanadigan mablag‘.
<b>Sug‘urta hodisasi</b>	Sug‘urta qildiruvchiga tegishli bo‘lgan mulkning doimiy saqlanish joyida yoki harakatda bo‘lishida, toshqin, tezligi 20 m/s dan yuqori bo‘lgan kuchli shamol, juda kuchli shamol (dovul) jala, sel va sel oqimi, ko‘chki, do‘l, juda kuchli qor yog‘ishi, gidrometrologik holatlar natijasida tuproqning cho‘kishi, yer osti suvlarining ta‘siri, chaqmoq urishi, zilzila, avariya, yo‘l transport hodisasi, yong‘in, portlash, o‘g‘irlash, uchinchi shaxslarning qastdan qilgan noqonuniy harakati tufayli yuqotilishi yoki shikastlanishi natijasida zararlanishi sug‘urta hodisasi hisoblanadi.



<b>Tabiiy ofatlar</b>	Shartnomada ko‘rsatilgan tabiiy ofatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-avgustdagi “Gidrometeorologiya va atrof tabiiy muhit ifloslanishi monitoringi sohasida ixtisoslashtirilgan xizmatlar ko‘rsatish reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 501-sonli qaroriga asosan sharhlanadi.
<b>Sug‘urta tovon</b>	Sug‘urta hodisasi natijasida lizingga olinayotgan mulkka yetkazilgan zararni qoplash uchun Sug‘urtalovchi tarafidan sug‘urta puli chegarasida Sug‘urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga to‘lanadigan pul mablag‘i.
<b>Fors-majior holati</b>	Favqulodda va oldindan ko‘rilmagan xarakterda bo‘lib, tomonlar majburiyatlarini qabul qilgandan keyin kelib chiqadi, hamda ularning xohish irodasiga bog‘liq bo‘lmay, aqliy tadbirlar bilan uning oldini olib bo‘lmaydigan holat.

## II. SHARTNOMANING MAZMUNI

Sug‘urtalovchi, Sug‘urta qildiruvchining sug‘urta arizasida ko‘rsatilgan mulkini doimiy saqlanish joyida yoki harakatda bo‘lishida sug‘urta hodisasi tufayli zararlanishi yoki nobud bo‘lishi natijasida ko‘rgan zarari Sug‘urtalovchi tomonidan belgilangan tartibda qoplanadi.

Sug‘urta qildiruvchi mazkur shartnomaning 4-bandida belgilangan sug‘urta mukofotini to‘lagandan so‘ng, Sug‘urtalovchi Sug‘urta qildiruvchiga, yoki Naf oluvchi sug‘urta hodisasi natijasida ko‘rgan zarari bo‘yicha sug‘urta tovonini to‘lab berish majburiyatini oladi.

## III. SUG‘URTA PULI VA JAVOBGARLIK DARAJASI

3.1. Mazkur shartnoma bo‘yicha sug‘urta puli raqamda (son va so‘z bilan) so‘m (Arizadan tortiladi), Ilovada ko‘rsatilgan mulkning haqiqiy qiymatidan 100% hisobida.

3.2. Sug‘urtalovchi tomonidan zararni qoplash uchun to‘langan sug‘urta tovon javobgarlik darajasini kamaytiradi. Sug‘urta qildiruvchi tomonidan qo‘shimcha sug‘urta mukofoti to‘langanda, javobgarlik darajasini mazkur shartnomadagi javobgarlik darajasigacha yetkazish mumkin.

3.3. Lizinga olinayotgan mulk haqiqiy qiymatidan yuqori qiymatga baholangan bo‘lsa, u holda Sug‘urtalovchi sug‘urta puli doirasida javobgarlik olib boradi.

## IV. SUG‘URTA MUKOFOTINI TO‘LASH TARTIBI

4.1. Sug‘urta mukofoti bir yilga sug‘urta pulidan yillik 0.1 % miqdorida bo‘lib, sug‘urta muddati uchun qo‘shimcha qiymat solig‘isiz raqamda (son va so‘z bilan) so‘m (Arizadan tortiladi) so‘mni tashkil etadi.

Mazkur shartnoma bo‘yicha barcha hisobotlar so‘mda olib boriladi.

Sug‘urta mukofoti Sug‘urta qildiruvchi tomonidan bir yo‘la to‘lanadi.

4.2. Naf oluvchi, Sug‘urta qildiruvchi tomonidan lizing shartnomasidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to‘liq bajargani haqida Sug‘urtalovchiga yozma ravishda xabar bersa, Sug‘urtalovchi sug‘urta mukofotini ishlatilmay qolgan qismini qayta hisoblab chiqadi.

4.3. Ishlatilmagan sug‘urta mukofoti, Sug‘urta qildiruvchi tomonidan lizing mablag‘lari muddatidan oldin qaytarilgan kundan boshlab, shartnoma amal qilgan kunlarga mutanosib ravishda hisoblanadi. Sug‘urtalovchi ishlab topilmagan Sug‘urta mukofotini Sug‘urta qildiruvchining hisob raqamiga o‘tkazib beradi.

4.4. Sug‘urta mukofotining ishlatilmay qolgan qismi, naf oluvchining, Sug‘urta qildiruvchi majburiyatlarini to‘liq bajarib bo‘lganligini tasdiqlovchi yozma xabarnomasini bergan kundan boshlab, Sug‘urtalovchi tomonidan 5 (besh) bank kuni ichida to‘lab beriladi.

4.5. Sug‘urta mukofotining ishlatilmay qolgan qismi qaytarilishida Sug‘urtalovchi o‘zining harajatlarini chegirib qoladi. Sug‘urtalovchining chegirib qolinadigan harajatlari miqdori sug‘urta mukofotining 25 foizi darajasida belgilanadi.

## V. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA SUG‘URTA POLISINI BERISH TARTIBI

5.1. Mazkur shartnoma tomonlar imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va sug‘urta muddati mobaynida amal qiladi. Lizing shartnomasiga qo‘shimcha kiritilib, shartnomaning muddati uzaytirilsa,



hamda tomonlarning kelishuviga asosan qo‘shimcha sug‘urta mukofoti to‘lansa, mazkur shartnomaning amal qilish muddati uzaytirilishi mumkin.

5.2. Mazkur shartnomada belgilangan sug‘urta mukofoti Sug‘urtalovchining hisob-raqamiga kelib tushgan kundan boshlab, Sug‘urtalovchining majburiyatlari kuchga kiradi.

5.3. Sug‘urtalovchining hisob-raqamiga sug‘urta mukofoti tushgan kundan boshlab 5 (besh) kun ichida elektron sug‘urta polisi beriladi

5.4. Sug‘urta qildiruvchi sug‘urta polisini yuqotgan holda, uning yozma ravishdagi arizasiga asosan, Sug‘urtalovchi Sug‘urta qildiruvchiga sug‘urta polisini nusxasini (dublikatini) beradi.

5.5. Sug‘urta mukofotini Sug‘urtalovchining hisob-raqamiga tushgan kuni, sug‘urta mukofotini to‘langan kuni hisoblanadi. Sug‘urta mukofoti Sug‘urtalovchining hisob-raqamiga tushmasa, shartnoma tuzilmagan hisoblanadi va bekor qilinadi.

5.6. Sug‘urta qildiruvchi tomonidan mazkur shartnomaning belgilangan muddatlarida sug‘urta mukofoti to‘lanmasa, Sug‘urtalovchining shartnoma bo‘yicha majburiyatlari kuchga kirmaydi. Sodir etilgan hodisalar bo‘yicha da‘vo va arizalar ko‘rib chiqilmaydi. Sug‘urtalovchi sug‘urta mukofoti to‘langan kundan boshlab o‘z majburiyatlarini bajarishga kirishadi, lekin sug‘urta muddati o‘zgarmay qoladi.

5.7. Sug‘urta mukofoti keyingi bosqichdagi to‘lov muddatidan o‘tib ketib to‘lansa va o‘tib ketgan kunlar ichida sug‘urta hodisasi ro‘y bergan bo‘lsa, bu holda Sug‘urtalovchi to‘langan sug‘urta mukofotiga mutanosib ravishda sug‘urta tovonini to‘lash huquqiga ega bo‘ladi.

5.8. Sug‘urta shartnomasi, lizing shartnomasiga o‘zgartirishlar kiritilishiga binoan hamda, tomonlarning yozma arizalariga asosan har qanday holatda o‘zgartirilishi yoki to‘xtatilishi mumkin. Bunday holatda, ariza beruvchi Naf oluvchining yozma roziligini olgan holda, tomonlarni Sug‘urta shartnomasi bekor bo‘lishidan 30 (o‘ttiz) kun oldin yozma ravishda xabardor qilishi shart.

5.9. Sug‘urtalovchining faoliyati tugatilgan holda, Sug‘urta shartnomasining amal qilishi ham to‘xtatiladi. Sug‘urta shartnomasiga tegishli bo‘lgan barcha huquq va majburiyatlar uning qonunchilik asosida belgilangan vorisiga o‘tadi.

## VI. SUG‘URTA HODISASI

6.1. Mazkur shartnomaga asosan Sug‘urta qildiruvchiga tegishli bo‘lgan mulkning doimiy saqlanish joyida yoki harakatda bo‘lishida toshqin, juda kuchli shamol (dovul) jala, sel va sel oqimi, ko‘chki, do‘l, juda kuchli qor yog‘ishi, tuproqning cho‘kishi, yer osti suvlarining ta‘siri, chaqmoq urishi, zilzila, avariya, yo‘l transport hodisasi, yong‘in, portlash, o‘g‘rilash, uchinchi shaxslarning qasddan qilgan noqonuniy harakati tufayli yo‘qotilishi yoki zarar yetkazilishi natijasida Sug‘urta qildiruvchining zarar ko‘rishi Sug‘urta hodisasi hisoblanadi.

6.2. Quyidagilar sug‘urta hodisasi hisoblanmaydi:

-Sug‘urta qildiruvchining qo‘pol ehtiyotsizligi, bilib turib (qastdan) qilgan harakati yoki harakatsizligi natijasida sug‘urta hodisasi ro‘y bersa (sug‘urta qildiruvchining uchinchi shaxslar hayotini, sog‘lig‘ini, qadr-qimmatini, or-nomusini himoya qilish yoki fuqarolik burchini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan hollar bundan mustasno);

-Sug‘urtalovchiga sug‘urtalangan mulk haqida yolg‘on ma‘lumotlar berilsa.

6.3. Mazkur shartnomaga asosan quyidagi siyosiy tavsifga ega bo‘lgan hodisalar tufayli, mulkga yetkazilgan qisman yoki to‘liq zarar qoplanmaydi:

-urush va xarbiy harakatlar (urush e‘lon qilinganligi yoki qilinmanganligidan qat‘iy nazar), g‘alayon, inqilob, qo‘zg‘olon, isyon, fitna, ish tashlash, lokaut, hukumatni noqonuniy ravishda egallab olish, terrorchilik harakatlari, musodara qilish, rekvizitsiya, hukumat yoki uning tarkibiy qismi topshirig‘iga asosan buzib tashlanishi yoki unga zarar yetishi harakatlari, yader reaksiyasi, yader nurlanish yoki radioaktiv zararlanishi yoki nobud bo‘lishi holatlarida.

## VII. SUG‘URTA TOVONI MIQDORINI ANIQLASH VA TO‘LASH TARTIBI

7.1. Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda Sug‘urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi sug‘urta hodisasi va zararlangan yoki nobud bo‘lgan mulk haqida Sug‘urtalovchiga 3 (uch) kun ichida yozma ravishda xabarnoma beradi.

7.2. Sug‘urtalangan mulkni zararlanishi yoki nobud bo‘lishini keltirib chiqaruvchi sug‘urta hodisasi ro‘y berganda, hodisa asoslarini aniqlash uchun komissiya tashkil qilinadi. Komissiya tarkibiga



Sug‘urtalovchi, Sug‘urta qildiruvchi va Naf oluvchining vakillari, hodisa tavsifiga ko‘ra mutasaddi tashkilot vakillari, ekspertlar va boshqalar kiradi.

7.3. Sug‘urtalovchi tomonidan taqdim qilingan hujjatlar asosida mulkga yetkazilgan zarar miqdori aniqlanadi va ma‘lumotnoma tuziladi.

7.4. Barcha tomonlar ma‘lumotnomaga qo‘l qo‘yadilar va qo‘l qo‘yish jarayonida o‘z e‘tirozlarini ma‘lumotnomada aks ettiradilar.

7.5. Tuzilgan ma‘lumotnomalar sug‘urta hodisasi tan olinayotganligi yoki tan olinmaganligini bildirmaydi va ma‘lumotnomalar asosida sug‘urta tovonni to‘lanmaydi. Sug‘urta qildiruvchi sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda mulkni ta‘mirlash va boshqa (sotish, metallomga berish va hokazolarni) ishlarini Sug‘urtalovchi bilan kelishilgan holda amalga oshiradi.

7.6. Sug‘urtalovchi taqdim etilgan hujjatlarning to‘g‘riligini tekshirishi va zarur holatlarda, boshqa kerakli hujjatlarni talab qilishi mumkin.

7.7. Sug‘urta qildiruvchi har qanday holatda o‘z mablag‘lari hisobidan sug‘urta hodisasi bilan bog‘laq bo‘lgan barcha hujjatlarni (sug‘urta hodisasini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi va hodisa tafsilotlari haqida ma‘lumotnoma) ishlab chiqishi, xarid qilishi va Sug‘urtalovchiga taqdim etishi shart.

7.8. Sug‘urta tovonni haqiqiy yetgan zarar miqdorida, lekin shartnomada belgilangan Sug‘urta pulidagi miqdoridan oshmagan holda belgilanadi.

7.9. Sug‘urta puli sug‘urta shartnomasi tuzilgan vaqtda mulkning haqiqiy qiymatidan yuqori belgilangan bo‘lsa, Sug‘urta tovonni miqdori mulkning sug‘urta shartnomasi tuzishdagi haqiqiy qiymatidan kelib chiqqan holda mutanosib tarzda belgilanadi.

7.10. Sug‘urtalovchi taqdim etilgan hujjatlarni o‘rganib chiqib, sug‘urta hodisasi ro‘y berganligi yoki sug‘urta hodisasi ro‘y bermaganligi haqida qaror qabul qiladi. Qarorda sug‘urta tovonni miqdori belgilanadi.

7.11. Sug‘urta tovonni Naf oluvchining xohishiga ko‘ra, dalolatnomaga qo‘l qo‘yilgan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida Sug‘urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga to‘lab beriladi.

7.12. Sug‘urta tovonni sug‘urta shartnomasiga asosan Sug‘urta qildiruvchining yoki Naf oluvchining hisob raqamiga pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

7.13. Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda, sug‘urtalangan mulkga tegishli boshqa yana amal qilinayotgan sug‘urta shartnomasi mavjud bo‘lsa yoki zarar yetkazgan shaxsdan moddiy zarar undirilgan bo‘lsa, u holda Sug‘urtalovchi o‘z javobgarligi doirasidan ortiq zararni to‘lab berishga majbur emas.

## VIII. SUBROGATSIYA

8.1. Sug‘urta qildiruvchi yoki Naf oluvchining sug‘urta hodisasi natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to‘langan summa doirasida Sug‘urtalovchiga o‘tadi. Sug‘urtalovchiga o‘tgan talab qilish huquqi uning tomonidan Sug‘urta qildiruvchi, Naf oluvchi va zarar uchun javobgar bo‘lgan shaxs o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

8.2. Sug‘urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi, Sug‘urtalovchiga o‘ziga o‘tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan barcha hujjatlar va dalillarni Sug‘urtalovchiga berishi, hamda barcha ma‘lumotlarni unga ma‘lum qilishi shart.

8.3. Sug‘urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi, Sug‘urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o‘zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish Sug‘urta qildiruvchining aybi bilan mumkin bo‘lmagan bo‘lsa, Sug‘urtalovchi Sug‘urta tovonini to‘liq yoki uning tegishli qismini to‘lashdan ozod qilinadi va ortiqcha to‘langan sug‘urta tovonini qaytarilishni talab qilishga haqli bo‘ladi.

## IX. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 9.1. Sug‘urtalovchining huquqlari:

-sug‘urtalangan mulkning holatini, saqlanish sharoitini sug‘urta shartnomasi tuzishda va amal qilish davrida hamda sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda tekshirish;

-Sug‘urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi sug‘urta shartnomasini shartlarini bajarmaganda, sug‘urta shartnomasini bekor qilish;

-amaldagi qoida va qonunchilikda belgilangan tartibda sug‘urta tovonini to‘lashni rad etish;

-sug‘urtalangan mulklarning zararlanishi yoki nobud bo‘lishiga aybdor shaxslar aniqlangan hollarda to‘langan sug‘urta tovonini ulardan undirib olish haqida da‘vo qilish;

-Sug‘urta tovonni miqdorini aniqlash uchun Sug‘urta qildiruvchidan mutasaddi tashkilotlarning



dalolatnomalarini, ekspertlar xulosalarini taqdim etishni talab qilish;

-Sug‘urta mukofoti belgilangan muddatda to‘lanmasa, Sug‘urta shartnomasida belgilangan shartlar asosida har bir kechiktirilgan kun uchun jarima haqqini talab qilish.

### **9.2. Sug‘urtalovchining majburiyatlari:**

-Sug‘urta polisini qoidada va sug‘urta shartnomasida belgilangan muddatda Sug‘urta qildiruvchiga yozib berish;

-Sug‘urtalangan mulkning sug‘urta hodisasi to‘g‘risida xabarnoma olgach, mulkga yetkazilgan zararni aniqlash va tegishli tashkilotlar vakili ishtirokida ma‘lumotnoma tuzish;

-Sug‘urta hodisasi natijasida Sug‘urtalangan mulkga yetkazilgan zarar bo‘yicha sug‘urta tovonini miqdorini hisoblab chiqish va dalolatnoma asosida belgilangan muddatda to‘lash.

### **9.3. Sug‘urta qildiruvchining huquqi:**

-Sug‘urta shartnomasida kelishilgan shartlar asosida sug‘urta polisini Sug‘urtalovchidan olish;

-Sug‘urta shartnomasi amal qilish davrida sug‘urta shartnomasiga doir savollarga Sug‘urtalovchidan to‘liq javoblar olish, ushbu qoida shartlari bilan tanishish;

-Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda ushbu qoidada ko‘rsatilgan tartibda sug‘urta tovonini olish.

-Sug‘urta tovonini belgilangan muddatda to‘lanmasa, sug‘urta shartnomasida belgilangan shartlar asosida har bir kechiktirilgan kun uchun jarima haqqini talab qilish;

### **9.4. Sug‘urta qildiruvchining majburiyatlari:**

-sug‘urtalangan mulkni zararlanishi yoki nobud bo‘lishini oldini olish uchun barcha choralarni ko‘rish;

-Sug‘urta shartnomasidagi shartlarni belgilangan muddatlarda bajarish, ularni buzmaslik uchun barcha choralarni ko‘rish;

-Sug‘urta shartnomasida belgilangan muddatlarda sug‘urta mukofotini to‘lash;

-Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda, Sug‘urtalovchiga belgilangan muddatda, yozma ravishda xabarnoma berish va sug‘urta tovonini aniqlash uchun zarur bulgan barcha hujjatlarni taqdim qilish;

-Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda zarar miqdorini aniqlash uchun zarur bo‘lgan fotosurat yoki videotasmalar bilan Sug‘urtalovchini ta‘minlash;

-yuridik manzili yoki bank rekvizitlari o‘zgarganda Sug‘urtalovchiga 10 kun ichida yozma ravishda xabarnoma berish;

-Sug‘urtalovchi taqdim etgan hujjatlarning to‘g‘riligini tekshirish va zarur holatlarda, boshqa kerakli hujjatlarni talab qilish;

-Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda mulkni ta‘mirlash va boshqa (sotish, metallomga berish va hokazolarni) ishlarini Sug‘urtalovchi bilan kelishilgan holda amalga oshirish.

## **X. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

10.1. Mazkur sug‘urta shartnomasining shartlarini bajarmaslik yoki kerakli darajada bajarmaganlik uchun tomonlar O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurutuvchi sub‘ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonunda belgilangan javobgarlikni teng darajada olib boradilar

10.2. Sug‘urtalovchi o‘z majburiyatlarini vaqtida bajara olmasa yoki muddatidan kechiktirib bajarsa, u holda Sug‘urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi har bir kechiktirilgan kun uchun 0.1%, lekin sug‘urta tovonini miqdorining 10% dan ortiq bo‘lmagan miqdorida jarima so‘rashga haqli. Hisoblangan jarima Sug‘urtalovchini sug‘urta tovonini to‘lashdan ozod etmaydi.

10.3. Sug‘urta qildiruvchi sug‘urta mukofotini to‘lashni mazkur shartnomada belgilangan muddatlardan kechiktirib yuborgan taqdirda, Sug‘urtalovchiga har bir kechiktirilgan kun uchun sug‘urta mukofoti miqdorining to‘lanmagan qismidan 0.1%, lekin to‘lanmagan sug‘urta mukofotining 10% dan ortiq bo‘lmagan miqdorida jarima to‘laydi. Shu bilan birga sug‘urta polisining amal qilish muddati vaqtincha to‘xtatiladi.

10.4. Mazkur shartnomani tuzish vaqtida sug‘urta qildiruvchiga, sug‘urta hodisasi ro‘y bergani ma‘lum bo‘lsa, bu holda Sug‘urtalovchining majburiyatlari kuchga kirmaydi.

## **XI. NIZOLARNI HAL ETISH**

11.1 Mazkur sug‘urta shartnomasidan kelib chiqadigan barcha bahs va munozaralar tomonlarning o‘zaro kelishuviga asosan hal qilinadi. Kelishish imkoni bo‘lmagan holda, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida xo‘jalik sudiga ko‘rib chiqish uchun beriladi.





## XII. KONTRIBUTIV MODDA

12.1 Sug‘urtalangan mulkka tegishli boshqa sug‘urta shartnomasi yoki sug‘urta polisi mavjud bo‘lsa va sug‘urta hodisasi ro‘y berganda, yetgan zarar miqdori uchunchi shaxslar tarafidan sug‘urta qildiruvchiga yoki naf oluvchiga to‘lab berilsa, u holda Sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini o‘z javobgarligi doirasidan ortiq bo‘lgan miqdorini to‘lab berishga majbur emas.

## XIII. MAXSUS SHARTLAR

13.1. Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda, sug‘urta qildiruvchi yoki naf oluvchi zudlik bilan, hodisa bo‘lgan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kun ichida Sug‘urtalovchiga sug‘urta hodisasi haqida yozma ravishda xabar berishi shart.

13.2. Sug‘urta qildiruvchi, har qanday holatda o‘z mablag‘i hisobidan, sug‘urta hodisasi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hujjatlarni (rejalar, spetsifikatsiyalar, yuk qog‘ozi, sug‘urta hodisasini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi va hodisa tavsilotlari haqidagi ma‘lumotnoma) Sug‘urtalovchiga taqdim etishi shart.

13.3. Barcha hujjatlarni yig‘ishni Sug‘urtalovchi o‘z hisobidan amalga oshirgan bo‘lsa, sug‘urta qildiruvchi tarafidan ushbu harajatlar to‘lab berilishi shart.

13.4. Mazkur shartnoma kuchga kirishidan avval, sug‘urtalangan mulkka nisbatan boshqa sug‘urta shartnomasi va/yoki sug‘urta polisi mavjud bo‘lsa, sug‘urta qildiruvchi bu haqda Sug‘urtalovchiga habar berishi shart.

13.5. Sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini to‘lab berganidan so‘ng, sug‘urta hodisasi mazkur shartnomaning 6.2, 6.3-bandlaridagi sabablarga ko‘ra vujudga kelgani aniqlansa va vakolatli organlardan olinayotgan hujjatlar Sug‘urtachiga taqdim qilinsa, u holda sug‘urta qildiruvchi sug‘urta tovonini qaytarib berishi shart.

13.6. Mazkur shartnomaga qo‘shimcha o‘zgartirishlar kiritish, ularni bekor qilish yoki to‘xtatish sug‘urta qildiruvchi, naf oluvchi va Sug‘urtalovchining yozma ravishdagi roziligi bilan amalga oshirilishi shart, aks holda ular haqiqiy emas deb hisoblanadi.

13.7. Sug‘urtalangan mulkga nisbatan huquqlar naf oluvchiga yoki boshqa shaxsga o‘tsa, sug‘urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari mulkga egalik qilgan shaxsga o‘tadi.

## XIV. MAZKUR SHARTNOMANING MUDDATIDAN ILGARI BEKOR QILINISHI

14.1. Mazkur shartnoma tomonlarning arizalariga asosan har qanday holatda to‘xtatilishi mumkin. Bunda ariza beruvchi naf oluvchining yozma roziligini olgan holda, tomonlarni shartnoma bekor bo‘lishidan 30 (o‘ttiz) kun oldin yozma ravishda xabardor qilishi shart.

14.2. Mazkur shartnoma quyidagi hollarda muddatidan oldin bekor qilinadi:

-mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urta mukofoti to‘lanmaganda;

-Sug‘urtalovchining sug‘urta qildiruvchi oldidagi sug‘urta tovonini to‘lash bo‘yicha majburiyatlari to‘liq bajarilganida.

14.3. Mazkur shartnoma kuchga kirganidan so‘ng, sug‘urta hodisasi sodir bo‘lish ehtimoli yo‘qolgan bo‘lsa va sug‘urta havfining mavjud bo‘lishi sug‘urta hodisasining boshqa holatlari bo‘yicha tugagan bo‘lsa, shartnoma muddatidan olgan bekor qilinadi.

## XV. BOSHQA SHARTLAR

15.1. Mazkur shartnoma bo‘yicha tomonlar shartnomaning ilovalarini va unga tegishli hujjatlarni uchinchi tarafga tomonlarning yozma roziligisiz bermaydi va ushbu shartnomaga taaluqli bo‘lgan barcha ma‘lumotlarni sir saqlaydilar.

15.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo‘lib, Sug‘urtalovchi va Sug‘urta qildiruvchida bitta nusxadan saqlanadi va ularning har biri bir hil huquqiy kuchga ega.

## XVI. TOMONLARNING YuRIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

“Sug‘urtalovchi”	“Sug‘urta qildiruvchi”	“Naf oluvchi”
------------------	------------------------	---------------



<p><b>nomidan</b></p> <p><b>Nomi:</b> “O‘zagrosug‘urta” AJ <b>Manzili:</b> Toshkent sh, Chilonzor tumani, 19-kv, 61/2- uy <b>Bank:</b> “Mikrokreditbank” ATB <b>MFO:</b> 00433 <b>STIR:</b> 201042345</p>	<p><b>F.I.Sh:</b> <b>Pasport seriya va raqami:</b> <b>Manzili:</b> <b>JShShIR:</b></p>	<p><b>Nomi: tashkilot nomi</b> <b>Bank nomi</b> <b>MFO:</b></p>
---	--	---